

MUTAFAKKIRLARNING BILIMI VA BILISHI INSON MOHIYATINING IFODASI SIFATIDA

Xo'jaqulova Munira Islom qizi

TDSI, Ijtimoiy fanlar bioetika kursi bilan kafedrasining assistenti

Tel: +998977030682

ANNOTATSIYA

Maqolada inson mohiyati, uning borliqni bilishga bo'lgan ehtiyoji, aql, aqlning inson mohiyatini ochib shakllanishiga yordam beruvchi Alloh tomonidan berilgan ne'mat ekanligi ifodalangan. Faylasuflar inson aqli tufayli bilimga ega bo'lishligi va eng asosiysi inson aqli vositasida Allohni anglashlik kabi qarashlar ifodalangan.

Kalit so'zlar: Inson, aql, mohiyat, din, bilish, quvvat.

ABSTRACT

The article describes the essence of man, his need to know existence, reason, and the fact that reason is a blessing given by God that helps to reveal and form the essence of man. Philosophers express views such as the acquisition of knowledge through the mind of man and, most importantly, the understanding of God through the mind of man.

Keywords: Man, mind, essence, religion, knowledge, power.

KIRISH

Dunyoning nufuzli ilmiy tadqiqot institutlari va yetakchi ilmiy markazlarida O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlarining, jumladan Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosini o'rganish, undan hozirgi davr dolzarb masalalarining yechimini izlash orqali inson mohiyatini anglash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularda insonning genetik, psixologik, ijtimoiy hislatlarining birligi va o'zaro aloqadorligi; tafakkurlash jarayoni; his tuyg'ulari va aql hamda dunyoqarashning shakllanish va o'zgarishga ta'siri; e'tiqod va xatti harakatlarning uyg'unligi, ongini manipulyatsiya qilish, ilm va bilishning dolzarbligi kabi masalalar bayon etilgan. Tadqiqotlarni amalga oshirishda o'tmish mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy g'oyalaridan ham unumli foydalanilgan. Shu bois, Abu Nasr Forobiyning ilmiy falsafiy merosi asosida falsafa va din, inson konsepsiyasining falsafiy-konseptual g'oyalarining ijtimoiy ahamiyatini asoslab berish zaruriyati yuzaga keldi.

Maqolada ilmiy bilishning tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, vorisiylik, ilmiy xolislik kabi tamoyillar, analiz va sintez, hamda taqqoslash va umumlashtirish usullaridan, induksiya, deduksiya va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan foydalanildi.

Olimning hayotiga nazar solar ekanmiz u oddiy bo‘lmagan hodisaga befarq bo‘lmay, o‘z munosabatini bildirmasdan turolmasdi. Forobiyning inson, axloq, sotsiologiya, falsafa va dinga oid savollari كتاب الحروف (“Harflar kitobi”), “Fanlarning kelib chiqishi haqida”, “Buyuk Zenonning oliy fan haqidagi risolasi”, “Fozil odamlar shahri ahlining qarashlari haqida” كتاب فى مبادئ آراء اهل المدينة الفاضلة (“Falsafaning dinga munosabati”), مقالة فى إحصاء العلوم (“Fanlarni tasniflash haqida so‘z”) kabi asarlarida ifodalangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sharq mashshaiyunchiligi falsafa va dinni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymagan, ulardan birini yuqori boshqasini quyi qo‘ymagan, balki jamiyatda ularni teng huquqqa ega va har biri o‘zining masalalarini hal qilib, bir-birini to‘ldirib keladi deb hisoblagan. Ular orasidagi farq faqat shunda namoyon bo‘ladiki, arab-musulmon donishmandlarining falsafasida islomga e’tiqod qiluvchilarning bilimlari hisobga olingan va ommabop tarzda dunyoviy haqiqat va uning in’ikosi bo‘lgan vahiylarni chalasavod guruhlar uchun tushunarli tasvirlari berilgan¹.

XXI asr falsafasining mushohadasiga ko‘ra, shuningdek mustaqil O‘zbekistonda 2022 yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nomlangan bo‘lsa, buning davomi sifatida 2023 yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb, barcha narsa inson uchun deb belgilanmoqda va Inson – oliy qadriyat sifatida tan olinmoqda. Inson – eng avvalo koinotning sarvari, Ong va Aqlga ega bo‘lgan, qaddi-qomatini tik tutib yura oluvchi, qo‘llari nozik harakatlarni bajara oluvchi, bosh miyasi o‘ta rivojlangan oliy darajadagi mavjudot bo‘lishi bilan birga, u bir vaqtning o‘zida ham bunyodkor, ham buzg‘unchi hamda zaif bo‘lishi mumkin. “Inson narsalarning haqiqiy tabiatini mutlaq shaklda bilmaydi, uning narsalarni anglashiga esa ibtido sifatida sezgi xizmat qiladi. Keyin aql-idrok yordamida u o‘xshash va noo‘xshash narsalarni farq qiladi. Shunda u o‘zining aql-idroki bilan uning ba’zi xususiyatlarini anglab, sekin-asta ulardan umumiy anglashga o‘tadi”². “O‘likka nisbatan “inson” so‘zi umumiy nom bo‘lganligi uchun ishlatilindi va uni “U odam” deb aytishadi. Bu so‘zning ishlatilishi zaruriy emas, chunki inson tushunchasi tirik maxluqqa nisbatan qo‘llaniladi”³.

Inson aqlining imkoniyatlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, uning imkoniyati cheklangan. Hayotda shunday narsalar borki, ularning mohiyatini anglash murakkab. Aql yer yuzidagi barcha jonzotlar ichida Alloh tomonidan faqat insonga berilgan oliy

¹ Аль-Фараби и развитие восточной философии. Астана. 2005. Елорда– С.107.

² Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты. //Афористические записи Ат-Таъликот.–Алма Ата: Наука, 1987. –С.292-293.

³ Ўша асар,Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты. //Афористические записи Ат-Таъликот.–Алма Ата: Наука, 1987 –С-305.

ne'mat hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy: "Inson hayvondan aqli bilan ajralib turadi"⁴ -degan. Uning X-XI asrda aytilgan bu fikri hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Forobiy va Ibn Sino عقل (aql) inson tug'ilishi bilan unda mavjud bo'ladi, degan fikrdalar. Insonda Aql borligi uchun ijtimoiy jamiyatdagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish, bilish asnosida yangi kashfiyotlarni ong osti faoliyatida ocha oladi.

Inson katta bo'lgani sayin uning aqli takomillashib boradi. Aql tufayli insonda yangi fikr va g'oyalar vujudga kelib, ilmi inson u orqali hayotini yengillashtiradi, ehtiyojlarini samarali qondiradi, mushkulini oson qiladi, jaholat va ma'rifatning farqini ko'rsata oladi. Ammo "aql" tushunchasini har kim har xil tushunadi. Yuqorida tilga olinganlarning aksariyati omma nazdidagi aql edi. Faylasuflar esa, inson aqli tufayli bilimga ega bo'ladi va eng asosiysi inson aqli vositasida Allohni anglaydi. Aql Allohga nisbatan cheksiz emas, ya'ni cheklangan; Yaratuvchi undagi mavjud barcha mohiyatni biladi, ammo aql insonga nisbatan cheksiz.

Qur'oni Karimda borliq Xudo tomonidan yaratilingan, inson ham Xudo tomonidan yaratilinganligi qayd etilgan. Inson aqli mavjudot bo'lganligi uchun ham u Furqonni tadqiq etish jarayonida unda yashiringan sirlarni, Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, hadislarida shakllangan muammolarning mohiyatiga yetib, yanada bilimli bo'lib bormoqda. Qur'onning mohiyatini tushunish esa, e'tiqodli musulmon uchun muammoning yechilishi demakdir. Ushbu muammolar sirasiga yaratuvchining o'z yaratganlariga munosabati, insonning iroda erkinligi va harakatlari, taqdir masalasi, nafs, borliq muammolari kiradi.

Aql vositasida bilib olinadigan va aql vositasida erishsa bo'ladigan mohiyatlar birlamchi mohiyatlar hisoblanadi. His qilib bilsa bo'ladigan mohiyatlarni ikkilamchi aqliy mohiyatlar, deyiladi. Birlamchi mohiyatlarga shunday narsalar xoski, ular tufayli bir-birlarini aniqlashtiradigan tus va turlar kelib chiqadi va hokazo. Biror bir narsaga xos bo'lgan bilim ko'ngilga borib yetsa, u ma'lum bo'ladi, ma'lum bo'lgan narsa esa, o'z navbatida, yanada ma'lumroq bo'ladi. Aql bilan bilib olinadigan narsa aqliy vositaga aylanadi... Ammo aql vositasida bilib olinadigan narsalar cheksiz mohiyatlarga intiladilar. ...birinchi aqliy vositalardagi mohiyatlarda mavjud bo'lgan holat ikkinchi aqliy mohiyatlarda ham bo'ladiki, mohiyat jihatidan ular kelib chiqqan bir ashyoning hosilalarini birlashtiradi. Ushbu ashyoni yagonaligini bilish – cheklangan yoki cheksiz bo'lishidan qat'iy nazar, uning majmuasini bilishdir. Masalan quyidagicha, "inson" so'zini bilish ma'nosi o'z-o'zicha uning o'ziga xos

⁴ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Академик М.М.Хайруллаев таҳрири остида. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б.77.

bo'lganidek, bu bilim barcha odamlarni va insonda cheklangan va cheklanmagan nima bo'lsa, barchasini bilishdir⁵.

Qur'oni Karimning 76-surasi "Inson" deb nomlanib, u 31 oyatdan iborat. Unda: "Surada Alloh taolo inson zotini yo'qdan bor qilgan, so'ngra ikki qarama-qarshi yo'nalishga ravona qilib qo'ygani, kufr va iymon egalarining oqibatlari, Payg'ambar (a.s.)ga tasalli beruvchi o'gitlar va boshqa ilohiy ko'rsatmalar mavjud"⁶. Shuningdek, surada inson nimadan va qanday yaratilgani, inson eshituvchi va ko'ruvchi qilib qo'yilgani, sabrli bo'lishga, kofirlarga itoat etmaslikka, Alloh bilim va hikmat egasi ekanligi, inson uchun yaratilgan mukofot va qilingan johil amallar uchun jazo borligi haqida ta'kidlangan.

Bizning nazdimizda Abu Nasr Forobiyning fikricha, o'rta asrlarda qayd etilgan mavzulardan: siyosat, jamiyat, tabiiy-ilmiy qarashlarga qaraganda din va inson konsepsiyasi masalalari dolzarb bo'lgan. Imom G'azzoliy (1058-1111) o'z asarlarida inson bilimi va haqiqatni bilish yetakchilik qilgan bo'lsa, XIX-XX asrlarda esa inson erkinligi yoinki tanlash ihtiyoiri masalalari dolzarb bo'lgan. Inson mavzusiga oid ilmiy munozaralarda ruh, jon, aql, taqdir kabi masalalar yetakchilik qilgan.

Arastu ruh salohiyati haqida birinchilardan bo'lib fikr bildirgan. Forobiy uning ruhiyatshunoslikka oid qarashlaridan keng foydalangan. Uning "Jon haqida" risolasi ruhiyatshunoslikning qadimgi nodir asari hisoblanadi. O'rta asrlarda u "Organon" kabi dong taratgan. Bu kitob arablarga yunon va suriy tillardagi tarjimalari orqali kirib kelgan. Bu musulmon faylasuflarining ishlarini jadallashtirgan, keyinchalik ular kitobga sharhlar, qolaversa, ruhiyatshunoslik bo'yicha risolalar yozganlar. Ular ham asosiy urg'uni aql masalasiga qaratganlar.

Aql va bilish masalasining dolzarbligini to'laligicha anglagan Forobiy, uni ilmiy nazariya sifatida ishlab chiqqan. U aql masalasiga "Aqlning turli ma'nolari to'g'risida" nomli risolasini bag'ishlaydi.

Ibn Rushd nafs (jon) xususida qiziq fikrni keltiradi: "Forobiy "Kitobi siyrati fozila" risolasida nafs (jon)ning boqiyiligini inkor qilgan bo'lsa, "Fozil odamlar shahri ahlining qarashlari haqidagi kitob"ida esa, Forobiy nafs (jon)ni boqiy degan"-deydi.

Olimning "المسائلعئون" ("Masalalar mohiyati") asarida "Barcha jonzotlardan inson o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi, chunki unda ruh mavjud bo'lib, shu ruh jismoniy a'zolar orqali ta'sir etuvchi quvvatni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari unda shunday quvvat borki, bu quvvat jismoniy a'zoldan xoli bo'lgan ravishda ta'sir etadi va bu quvvat aqlidir... quvvatlarning hech biri moddadan uzilgan holda

⁵Аль-Фараби. Естественнo-научные трактаты. // Книга букв.—Алма Ата: Наука, 1987. —С.360-362.

⁶Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Шайх Абдулазиз Мансур таржима ва тафсир муаллифи. 6-нашр. Т.; Ўзбекистон. 2016.578-Б.

mavjud bo‘lmaydi”⁷ kabi fikrlari mavjud. Demak, ushbu asarda insonni inson qilgan ruh va aql birinchi o‘ringa chiqadi. Moddiy borliq insonda his-tuyg‘u uyg‘otib, bosh miya faoliyati orqali insonni tafakkur qilishiga sabab bo‘ladi.

“Shayhur-Rais” va “Muallim as-Soniy” ham “Muallimi Avval”ning “Jon haqida” asaridan kelib chiqib, aqlni quyidagi asosiy ikki qismga ajratadilar:

1. Nazariy aql

2. Amaliy aql

Nazariy aql – bu nafs (jon)ning shunday quvvatiki, u har qanday voqeylikning mohiyatini qabul qila oladi.

Amaliy aql – bu nafs (jon)ning shunday quvvatiki, u xohishni uyg‘ota oladigan kuch bo‘lib, marraga erishishda voqeylikdagi unga kerak bo‘ladigan maqsadni yo‘naltira oladi.

Forobiy aql va quvvatni bir qancha turlarga ajratgan. Mutafakkir ularni insondan ajralmas deb bilgan. Ularning har birining o‘z funksiyasi mavjudligini ham qayd etgan. Aql va quvvat ila inson bilim egasi hisoblanadi. Bularsiz u borliqni anglay olmaydi.

Forobiy: “Inson tabiati har bir shaxsda turlicha...”- deydi. Mazkur fikrni mohiyatiga e‘tiborni qaratsak, har bir odam tabiati, ya’ni hulq-atvoridan tortib, ruhiyatigacha, jismoniy (fiziologik) imkoniyatlarigacha bir-biridan farqlanishlarini tushunishimiz mumkin. Aql haqidagi yuqoridagi murakkab fikrni ham hamma har hil tushunadi. Forobiyning ta’kidlashicha atrof-muhitni bilish va to‘laqonlicha aks ettirish uchun olam haqida ilk tushuncha nihoyatda zarurdir va borliqni bilishda aql yetakchidir.

Insonda ruh va aql bo‘lganligi uchun ham ulug‘ faylasuf insonni ulug‘vor va mukarram deb bilgan. Shuningdek, inson his etishdan tashqari hayol qilish imkoniyatiga ega. Bu sifatlar insonning axloqi, qobiliyati va kuchini belgilaydigan mayl va rag‘bat bilan bog‘lik, bu rag‘batlarsiz inson biron bir ish qila olmaydi⁸.

Inson bilmaslikdan bilishga tomon harakat qiladi. U har narsaning mohiyatiga yetishga, bilimli bo‘lishga harakat qiladi. U narsa xoh bir necha soniyagagina mavjud bo‘lsin, xoh bir necha asr mavjud bo‘lsin hammasini bilishga intiladi.

Isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, xitobda ishontirish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, she’riyatda hayol va tasavvur shunchalik zarur bo‘ladi. Ba’zida inson fe’li ko‘proq hayol surishga bog‘liq bo‘ladi⁹.

⁷ Аль-Фараби.// Естественнo – научные трактаты.–Алма-ата.:Наука, 1987.– С. 247-248.

⁸ Аль-Фараби. Естественнo-научные трактаты. //Афористические записи “Ат-Таъликот”.–Алма Ата: Наука, 1987.–С.285.

⁹. Абу Наср ал-Форобий.Фозил одамлар шаҳри. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т.: 1993. –Б.113-114.

Bundan xulosa qilib, aytish mumkinki, bolaga bilim berish jarayonida ilk tushuncha asosiy o'rinni egallaydi. Ana shu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mutafakkir odamlarning tushunchalarni anglashini, tashqi olamni aks ettirishni har kim turli yo'llar orqali bilishga harakat qilishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari Forobiy atrof-muhitni anglashni bilvosita va bevosita umumlashtirib, aks ettirishni shaxsning o'ziga xos bo'lgan (individual) xususiyatidan kelib chiqishini ta'kidlagan.

Forobiy olamni bilish jarayonining cheksizligini, uni bilmaslikdan bilish tomonga qarab borish mumkinligini ta'kidlaydi. Olim hissiy va aqliy bilishni bir-biridan ajratib ko'rsatadi. U besh hil sezgining har biriga ta'rif berib o'tadi. Hayvonlardan farqli ravishda "inson aql va sezgilari orqali bilim kasb etadi"-deydi.

Olimning fikricha, "Olam odilona tartibda harakatlanadi. Uning nizomida bir zulm, bir-biriga halal beradigan narsaning o'zi yo'q. Olamning nizomi, koinotning aylanib turishida bir kamchilik, noaniqlik yo'q. Mavjud tabiat ham g'oyat mukammal yaratilgan" – deydi Forobiy.

Mutafakkirning fikriga ko'ra, olamni bilish jarayonida yerdagi narsalarning mohiyatlarini, sabablarini bilib olgan aql keyin osmon jismlari va ularning shakllari, mohiyatini bilishga tomon intiladi.

Mutafakkir o'z fikrini quyidagi g'oya bilan ilgari suradi. "Haqiqatga yo'l muhokama va aql orqali boradi, ammo ungacha, bu maqsadga erishish uchun faqat aqlning o'zi kifoya emas, buning uchun ichki olamni poklab borish ham kerak. Va hikmatu donishmandlik markazi bo'lmish inson qalbi pardalar, g'uborlardan tozalanishi lozim, ..." ¹⁰.

Abu Nasrning fikrlarini davom ettirgan Sharq mutafakkirlardan biri Jaloliddin Rumiy inson tasavvur va tushunchalari vositasida olamni biladi va shu bilimiga asoslanib, harakat qiladi deydi. Shuning uchun, dunyoda paydo bo'lgan jamiki xayrli va xayrsiz ishlar, avvalo insonning tushunchalar olamida mavjud bo'ladi. Haqiqatdan ham, inson o'zi xayrli deb bilgan narsalariga intilib yashaydi, xayrsiz deb bilganlaridan esa qochadi

Jaloliddin Rumiy shunday deb yozadi: "Ba'zi insonlar aqlga shu qadar ergashdilarki, natijada butunlay malaklashdilar, nur bo'ldilar. Bular anbiyo va avliyodirlar. ... shahvati aqlaridan ustun kelgan kimsalar tamoman hayvonlashdilar, ba'zilar esa ikki o't orasida qolib qiynalmog'dalar". Alloma inson aqlga ergashganda, o'z nafsini tarbiyalaganda o'zining asl qiyofasiga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Mutafakkir inson tabiatidagi hayvoniylikni tark etishga undagan.

Ba'zi mutafakkirlarning asarlarida "Inson gapiruvchi hayvondir" deyilgan. Rumiy ham shu ta'rifni keltiradi. Uning ta'kidlashicha, hayvonlik unda doimiydir,

¹⁰С.М.Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. –Т.: Минҳож, 2003. –Б.79.

ayrilmasdir. Inson tovush chiqarib ham tovush chiqarmasdan ham (ichida) doimo gapiradi. Nazdimizda olim inson aqli tufayli nutq egasi hisoblanishini aytmoqchi bo'lgan. Rumiyning ta'kidlashicha, malak bilimi bilan, hayvon bilimsizligi bilan qutiladi. Bani odam esa shu ikkalasi o'rtasida arosatda qoladi.

Forobiy "insonni: tirik, aql egasi, o'luvchi mavjudot; farishtani: aql egasi va o'lmaydigan xilqat; hayvonni: aqlsiz va o'luvchan; ruh: aqlsiz va o'lmas¹¹" deb ta'riflaydi.

Insonni hayvondan ajratib turadigan narsasi bu nutqdir. Inson undan olamni bilish jarayonida foydalanadi. Ammo u nutqini mohirlik bilan shunday ifodalashi mumkinki, buning natijasida o'zgani aldamasdan turib, yolg'onga ishontira olish mahoratiga ham ega. Inson voqea va hodisalarning tub mohiyatini bila olmaydi deydi. "Kitab al-huruf" asarida Forobiy cheksizlik va cheklanganlik haqida fikr bildirib, inson aqli cheklanganligini ta'kidlaydi. Inson aqli barcha ashyo va hodisalarning mohiyatini bilishga qodir bo'lmaganligining sabablaridan biri aqlning cheklanganligi. Demak, bu yerda Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiyning qarashlari va islom falsafasidagi yondashuv mos tushadi.

Tasavvur va tushunchalar cheksizday. Inson ulardagi narsa, voqea, hodisalarni qanday so'z, ma'no va iboralar bilan ifodalashi uning aqlidan kelib chiqib belgilanadi. Aql egalari tushunchalarning ma'nosini bilsa, anglasa, ularning yaxshi yoki yomonligiga hukm chiqarishi mumkin. Demak, insonning qanday bo'lishi, qaysi yo'lni tanlashi uning o'ziga, aqliga bog'liq. Ma'nolar olamiga hamma ham kirolmaydi, chuqur kirib borgan insondagina komillikka intilish istagi paydo bo'ladi. Har kim ham ma'nolar olamini kashf eta olmaydi. Shu bois, inson o'z istaklarida goh yaxshilik, goh yomonlikka qarab boradi.

Inson qanchalik aqlli mavjudot bo'lmasin, uning aqli Yaratuvchining mo'jizakorligi oldida cheklangan. Inson ilohiyotning barcha asrorini bilishga va unga mazmunini to'liq ifoda eta oladigan tushunchalarni berishga ojiz. Aqlning cheklanganligi odamning barcha noinsoniy hatti-harakatlarini oqlay olmaydi. Cheklangan aql – ezgulik bilan yovuzlikning farqiga har doim ham bora olmasada, ammo yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borishi zarur. Aqlni kim yaxshilik uchun kim yomonlik uchun qanday ishlatishi hammaning o'z ihtiorida.

Afsus bugungi kunda "urush" va "tinchlik" tushunchalarining mohiyatiga yetmagan odamlar tinchlikning qadriga yetmayaptilar. Davr shu darajaga yetdiki, qurollanish, kuch, mohirona siyosat tinchlik belgisi bo'lmoqda. Ba'zilar "urush" va "halos qilish" tushunchalarini o'z manfaatlari yo'lida foydalanayotganligi insonning

¹¹Қаранг: Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты / Ответы на вопросы философовАлма-Ата. 1987. «Наука».С.390.

naqadar eng ayyor mavjudotligidan dalolatdir. Insonning konsepsiyasi o'zini anglash, bu borliqdagi vazifasini belgilab, baxtli bo'lishga harakat qilish zaruratligini anglashdir. Dunyoqarashlar turlicha bo'lganligi uchun inson mohiyatini va baxtni har hil anglaydilar.

Falsafani apodiktik bilim sifatida ko'rish maqsadga muvofiqligi sababli falsafa – haqiqiy fanning timsolidir deb hisoblash mumkin. Fanlar ichida mantiqiy tahlilga dosh bera oladigani falsafadir. Islom falsafasi zahirida esa diniy bilimlar, germevtika, ritorika, poetika, axloq, dialektika va boshqalar mavjud. Falsafa qonunlariga ko'ra falsafa bir predmetni atroflicha o'rganish bilan o'zaro aloqadorlikni o'rgangan kabi biz ham ilmiy ishda insonning borliqdagi, jamiyatdagi o'rnini, uning aqli, bilimi va mohiyati nimadan iboratligini o'rganishga harakat qildik.

Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Rumiy, imom G'azzoliy va boshqa ko'plab allomalar inson aqlini yuksaklikka ko'tardilar. Ular insonni jonotlar ichidagi yagona aqli, bilimli mavjudot sifatida e'tirof etganlar. Bu paragrafda Abu Nasr Forobiy asarlariga murojaat qilgan xolda, milliy mafkuramiz ta'limoti asosida insonning ilmsizlikdan bilimli inson darajasiga ko'tarilishining mohiyati imkon qadar tahlil qilindi.

XULOSA

Xulosa sifatida Abu Nasr Forobiy antik davr olimlarining qarashlarini islom falsafasi bilan uyg'unlashtirganini, mutafakkir falsafa, mantiq, psixologiya, ilohiyot va axloqiy kategoriyalarni batafsil sharhlaganligi, undan so'ng kelgan mutafakkirlar ham "Ikkinchi muallim"ning insonga oid qarashlarini tahlil qilib keying avlodga yetkazishganligi fozil jamiyat sari qadamdir. Bu olamda aql bilan anglashiladigan narsalar mavjud bo'lganiday, anglashilmaydigan narsalarning ham mavjudligi xususida ma'lumotlar berilishi natijasida ruhsiz hayotning mavjud bo'lmasligi isbotlandi.

Inson hamma narsani bilishga intiladi, u xoh qalb, xoh jon, xoh ruh masalasi bo'lsin hammasini bilishga harakat qiladi. Bilim his-tuyg'udan emas, aqldan kelib chiqadi, his-tuyg'u esa aqlga yordamchi. Agar, his-tuyg'u birinchi bo'lsa, unda hayvonda ham bilim bo'ladi, shuning uchun aql birlamchi bo'ladi; bilim bor ekan, demak, aql ham bor. Forobiy bu masalalar yuzasidan bir qancha asarlarida daliliy hukmlarni keltirgan. Olimning falsafasi o'ziga xos xususiyatlari va aniq belgilangan maqsad va tahlillari bilan e'tiborga sazovorligi ko'rib chiqildi.

Forobiy fikrlash va uni ifodalashda bahs-munozara, analiz va sintez metodlaridan keng foydalanib, izoh va sharhlarga mantiqan yondashgan. "Ikkinchi muallim"ning ratsional qarashlari keyingi davrlardagi bir necha mutafakkirlar dunyoqarashiga ta'sir etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Шайх Абдулазиз Мансур таржима ва тафсир муаллифи. 6-нашр. Т.; Ўзбекистон. 2016.
2. Аль-Фараби и развитие восточной философии. Астана. 2005. Елорда.
3. Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты. //Афористические записи Ат-Таълиқот; Книга букв.–Алма Ата: Наука, 1987.
4. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Академик М.М.Ҳайруллаев таҳрири остида. –Т.: Ўзбекистон, 1995.
5. Абу Наср ал-Форобий.Фозил одамлар шахри. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т.: 1993.
6. С.М.Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. –Т.: Минҳож, 2003.